

# “O`zkiyosanoatloyiha” AJ faxriylari doimo e`tiborda va e`zozda

// 12.11.2021

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/uzkiyosanoatloyiha-faxriylar>



“O`zkiyosanoatloyiha” aksiyadorlik jamiyatida uzoq yillar samarali faoliyat yuritgan faxriylar doimo e`tiborda va e`zozda. Institut faxriylari bo`lgan muhtoj, kasalmand, yolg`iz va ishsiz nafaqaxo`rlarga ijtimoiy ko`mak berildi. Mahsus oziq-ovqat paketlari shakllantirilib, jamiyatning 15 nafar faxriysiga ushbu paketlar taqdim etildi hamda ularning yashash joylariga olib borib berildi.

Faxriylar keksa avlodga ko`rsatilayotgan e`tibor va g`amxo`rlik uchun institut rahbariyatiga samimiy minnatdorchiliklarini bildirdilar. Ayniqsa, o`zini yolg`iz his etmasligi uchun ko`makka muhtoj bo`lgan ishsiz nafaqaxo`rlarga alohida e`tibor ko`rsatildi.

Eng kerakli paytda ularga yordam qo`lini cho`zib, samimiy e`tibor ko`rsatilganligi faxriylar e`tirofiga sabab bo`ldi.

